

U.HAMDAMNING “TOSH” HIKOYASI G‘OYAVIY-BADIIY TAHLILI

Buxoro xalqaro universiteti magistranti

Qurbanova Laylo Talibayevna

Annotatsiya. Mazkur maqolada U. Hamdamning “Tosh” hikoyasi falsafiy-psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Asarda inson qalbida shakllanadigan tushkunlik, begonalashuv va ichki og‘irlik “tosh” ramzi orqali ochib beriladi. Tadqiqotda yovuzlikning tashqi emas, balki insonning o‘z ruhiy olamida tug‘ilishi g‘oyasi asoslab beriladi. Go‘zallik va shafqatsizlik qarama-qarshiligi, illyuziya va haqiqat to‘qnashuvi hamda ong ostidagi zo‘ravonlik istagining shakllanish jarayoni badiiy timsollar vositasida yoritiladi. Hikoya inson ruhiyatidagi ma‘naviy inqiroz va uning ijtimoiy xavfni ko‘rsatib beruvchi falsafiy asar sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: tosh ramzi, yovuzlikning tug‘ilishi, ruhiy tushkunlik, begonalashuv, ichki inqiroz, go‘zallik va shafqatsizlik, psixologik tahlil, falsafiy talqin, ong osti, ma‘naviy qulash.

Аннотация . В данной статье проводится философско-психологический анализ рассказа У. Хамдама «Камень». В произведении внутреннее состояние человека — чувство подавленности, отчуждения и духовной тяжести — раскрывается через символ камня. В исследовании обосновывается идея о том, что зло рождается не извне, а формируется в глубинах человеческой души. Особое внимание уделяется противостоянию красоты и жестокости, столкновению иллюзии и реальности, а также процессу трансформации внутренней боли в агрессивное начало. Рассказ интерпретируется как философское осмысление духовного кризиса личности и его потенциальной социальной опасности.

Ключевые слова: символ камня, рождение зла, духовный кризис, отчуждение, внутренняя подавленность, красота и жестокость, психологический анализ, философская интерпретация, подсознание, моральный упадок.

Annotation . This article presents a philosophical and psychological analysis of U. Hamdam's short story "The Stone." The work explores inner depression, alienation, and spiritual heaviness through the symbolic image of the stone. The study argues that evil does not originate externally but emerges within the depths of the human soul. Special attention is given to the contrast between beauty and cruelty, the clash of illusion and reality, and the transformation of inner suffering into destructive impulses. The story is interpreted as a philosophical reflection on spiritual crisis and its potential social consequences.

Keywords: *symbol of the stone, birth of evil, spiritual crisis, alienation, inner depression, beauty and cruelty, psychological analysis, philosophical interpretation, subconscious, moral decline.*

Ulug'bek Hamdamning "Tosh" hikoyasi zamonaviy o'zbek nasrida inson ruhiyatini chuqur psixologik va falsafiy qatlamlarda tadqiq etgan asarlardan biridir. Ushbu hikoya tashqi voqelikdan ko'ra ko'proq ichki olam dramasi, qalb iztirobi va ma'naviy inqiroz jarayonini tasvirlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Muallif inson qalbida sezilmay paydo bo'ladigan, vaqt o'tishi bilan og'irlashib boradigan ruhiy tushkunlikni "tosh" timsoli orqali badiiy ifodalaydi. Asarning nomi — **"Tosh (yoki Yovuzlikning tug'ilishi)"** — o'zida ikki qatlamli ma'no mujassam etadi.

Birinchidan, *tosh* — og'irlik, sovuqlik, qattqlik va bejonlik ramzi. Qahramon qalbidagi tosh uning ruhiy tushkunligi, befarqligi va ichki muzlashini anglatadi. Tosh tirik emas, u his qilmaydi; demak, inson qalbining toshga aylanishi — uning hissiy jihatdan o'lishi, rahm-shafqat va mehrdan uzoqlashishidir. Qahramon boshida bu tosh ichkarida — yashirin, ko'zga ko'rinmas. Ammo u asta-sekin butun borliqni egallay boshlaydi.

Ikkinchidan, sarlavhadagi izoh — *"Yovuzlikning tug'ilishi"* — hikoyaning asosiy falsafiy savolini ochadi: yovuzlik qayerdan paydo bo'ladi? U tashqaridan keladimi yoki insonning o'z qalbida yetiladimi? Asar shuni ko'rsatadiki, yovuzlik birdan paydo bo'lmaydi. U avval og'riq, tushkunlik, ajralish hissi sifatida paydo bo'ladi. Agar bu holat anglanmasa, davolanmasa, u toshga aylanadi. Tosh esa bir

kun kelib qo‘lga chiqadi — ya’ni ichki yovuzlik tashqi harakatga aylanadi. Hikoya “Negadir yuragim siqilaveradi” jumlasini bilan boshlanishi bejiz emas: bu yerda sababdan ko‘ra davomiylik muhim. Qahramon o‘z kayfiyatining sababini taxminan biladi, ammo uni larzaga solayotgan narsa — bu holatning o‘tkinchi emasligi, vaqtinchalik emas, balki ildiz otib borayotganidir. Muallif inson qalbini “shabbodaga tutilgan yaproq”ga qiyoslaydi. Odatda inson ruhiyati o‘zgaruvchan, kayfiyatlar almashib turadi. Ammo qahramon holatida bu tabiiy aylanish to‘xtagan. Tushkunlik “bag‘rimga tanda qo‘ydi” deya ifodalanishi ruhiy og‘riqning tashqi emas, ichki va jismoniy seziladigan darajaga yetganini ko‘rsatadi. Tushkunlik vaqt o‘tgan sari yurak tubiga inib, mustahkamlanib, “jinsga”, ya’ni qattiq modda — toshga aylanmoqda. Bu ramz ruhiy muzlashni, his-tuyg‘ularning qotib borishini anglatadi. Qahramonning qisqa muddatli quvonchlari ham yuzaki ekanligi ta’kidlanadi. U chalg‘iydi, ammo ichki qatlamda yotgan “tosh”ga yana va yana qoqiladi. Bu yerda muallif insonning ichki muammolarini vaqtinchalik chalg‘ishlar bilan hal qilib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Muammo ildiz otgan bo‘lsa, u baribir o‘zini eslatadi. Parchaning eng muhim jihatlaridan biri — begonalashuv hissidir. Qahramon o‘zini “bir yon”, boshqalarni esa “ikkinchi tomon” deb tasavvur qiladi. U odamlarni hayqirib oqayotgan daryoning narigi qirg‘og‘ida deb biladi. Daryo bu yerda ramziy ma’noga ega: u ajratuvchi kuch, ichki va tashqi olam o‘rtasidagi to‘siqdir. Qahramon esa yolg‘iz, zulmat bosayotgan qirg‘oqda qolgan. “Qosh qorayib borayotgandek” iborasi ruhiy tushkunlikning tobora kuchayib, umidsizlikka aylanayotganini ifodalaydi. Qiziq jihati shundaki, qahramon yolg‘izlikdan qo‘rqadi, ammo odamlar tomon o‘tishni ham istamaydi. Bu ichki ziddiyat — asarning markaziy psixologik tugunlaridan biridir. Qahramon o‘zini “og‘ir, tuzalmas dard”ga chalingan deb hisoblaydi. U boshqalarni “soppa-sog‘” deb tasavvur qiladi va o‘z dardini uni jamiyatdan ajratib qo‘ygan hukm sifatida qabul qiladi. Bu esa ruhiy izolyatsiyaning kuchayishiga olib keladi. “Kayfiyat sirtmog‘i” obrazi esa holatning yanada og‘irlashganini bildiradi. Sirtmoq — bo‘g‘uvchi vosita. Qahramon na o‘la oladi, na bu sirtmoqdan qutula oladi. Bu o‘rinda muallif ruhiy azobning eng og‘ir ko‘rinishini — cho‘zilgan, davomli, najotsiz iztirobni tasvirlaydi. Inson jon berib

qutula olmaydi, ammo yashab ham erkin nafas ololmaydi. Bu yerda “tosh” hali tashqi shaklga chiqmagan, u ichki og‘irlik sifatida mavjud. Ammo aynan shu og‘irlik keyinchalik yovuzlikning ildiziga aylanishi mumkinligi sezdiriladi. Muallif shuni anglatadiki, anglanmagan va davolanmagan ruhiy tushkunlik insonni jamiyatdan ajratadi, qalbni toshga aylantiradi va asta-sekin ichki zulmatni kuchaytiradi. Shu tariqa hikoyaning boshlanishi inson qalbidagi yovuzlikning ildizi qanday shakllanishini psixologik jihatdan puxta asoslab beradi.

“Tosh”ni eritish umidi: najot izlash va ichki xavfni anglash

Asar bilan tanishar ekanmiz, qahramon ruhiyatidagi muhim burilish nuqtasi o‘zgarganiga guvoh bo‘lamiz. Avvalgi qismda u tushkunlikni tan olgan bo‘lsa, endi uning og‘irligini his etib, harakatga o‘tadi. “Ko‘ksimdagi toshning zalvori tobora tosh bosayotganini sezib” iborasi ichki og‘irlikning passiv holatdan faol bosimga aylanganini ko‘rsatadi. Bu endi shunchaki kayfiyat emas, balki ongni ezayotgan, mavjudlikni tahdid ostiga qo‘yayotgan kuchdir. Qahramonning tashqariga chiqishi — ramziy ma’noda ichki zulmatdan chiqishga urinishdir. U odamlar orasiga kirib, yaxshilik va muruvvatni ko‘rish orqali qalbidagi toshni eritmoqchi bo‘ladi. Demak, u hali to‘liq sovuq yoki yovuz emas; unda najot istagi bor. Bu jihat qahramonning ma’naviy jihatdan butunlay qulamaganini ko‘rsatadi. Buyrakdagi tuz va tosh haqidagi qiyos esa juda muhim. Bu yerda muallif ruhiy og‘irlikni jismoniy kasallik bilan tenglashtiradi. Buyrakdagi tosh qanday qilib yillar davomida noto‘g‘ri hayot tarzidan hosil bo‘lsa, qalbdagi tosh ham ruhiy muvozanatning buzilishi, noto‘g‘ri fikrlar, anglanmagan iztiroblar natijasida paydo bo‘ladi. Eng asosiy fikr shundaki: vaqtida chorasi ko‘rilmasa, u azobga aylanishi muqarrar. Qahramon ichki toshini nafaqat o‘zi uchun, balki “o‘zgalarning hayotiga xatar” deb baholaydi. Bu juda chuqur nuqta. Demak, u ichki zulmatning faqat shaxsiy emas, ijtimoiy xavf ekanini sezmoqda. Inson qalbidagi og‘irlik, agar nazorat qilinmasa, atrofdagilarga ham zarar yetkazishi mumkin. Bu — asarning “yovuzlikning tug‘ilishi” degan sarlavhasi bilan bevosita bog‘liq g‘oyaviy qatlamdir. Shu bilan birga, qahramonning so‘nggi jumlasini — “loaqa ichda, ichkarida qolsin” — uning hali ham muammoni to‘liq

anglab yetmaganini ko'rsatadi. U toshni yo'q qilishni emas, uni yashirishni xohlaydi. Bu esa muammoning ildiziga yetmasdan, uni vaqtincha bosishga urinishdir. Tosh ichda qolgan taqdirda ham u mavjud bo'lib qoladi va bir kun kelib tashqi shaklga chiqishi mumkin. Demak, ushbu parcha qahramonning ichki kurashini, najot istagini va ayni paytda xavfni anglay boshlaganini ko'rsatadi. Muallif shu orqali inson qalbidagi yovuzlik jarayoni ongli ravishda to'xtatilmasa, u ichki bosimdan tashqi harakatga aylanishi mumkinligini badiiy asoslaydi.

Go'zallikdan vahshiylikka: illyuziyaning parchalanishi

Asar davomida qahramon ruhiy iztirob tubidan birdan estetik mastlik, maftunkorlik va illyuzion najot sari ko'tariladi. Notanish ayol — uning uchun shunchaki inson emas, balki ruhiy qutqaruv, hayotga qaytish, qalbidagi “tosh”ni erituvchi mo'jiza sifatida namoyon bo'ladi. Avval ayol hid orqali seziladi — “muattar bo'y”. Hid inson ongiga bevosita ta'sir qiladigan, irratsional qatlamni uyg'otadigan sezgidir. Demak, qahramonning maftunligi aql emas, hissiyot darajasida boshlanadi. Keyin ko'rish orqali go'zallik kuchayadi: qaddi-qomat, sochlar, libos, shafaq ranglari. Tabiat va ayol o'rtasida uyg'unlik yaratiladi — shafaqning alvonligi bilan libosning qirmizisi qo'shilib, “olam aro mutanosiblik” timsolini hosil qiladi. Bu uyg'unlik qahramon ongida mukammallik illuziyasini yaratadi. Asta-sekin ayol real shaxsdan ramziy obrazga aylanadi. U “xirom aylaydi”, “qirmizirang kemadek suzadi”, “ovozsiz qo'shiq”ga o'xshaydi. Qahramon uni ko'rmaydi, balki eshitadi, his qiladi, unga singib ketishni istaydi. Bu yerda go'zallik estetik emas, metafizik darajaga ko'tariladi — u qahramon uchun hayot mazmuniga aylanadi. Hatto u jonini berishga tayyorligini aytadi. Demak, ichki bo'shliq shunchalik chuqurki, u har qanday kuchli taassurotni najot deb qabul qiladi. Eng muhim jihat shundaki, aynan shu pallada qahramon qalbidagi “tosh”ni unutadi. Demak, go'zallik vaqtincha ruhiy og'riqni bosadi. Ammo bu shifo emas — bu unutishdir. Tosh erimaydi, faqat vaqtincha sezilmay qoladi. Buriqish nuqtasi — baliqlar sahnasi. Tirik, suvsizlikdan potrayotgan baliqlar hayotning ojizligi va azob timsolidir. Qahramon ilk bor go'zallik bilan shafqatsizlikni yonma-yon ko'radi.

Ayolning ko'zlaridagi "yovvoyi shavq" uning tasavvuridagi ilohiy qiyofani chilparchin qiladi. U endi qo'shiq emas, yirtqich instinktning ifodasiga aylanadi. Ayolning lablari qizil bo'yoqmi, shafaq rangimi yoki tasavvur o'yinimi — bu muhim emas. Muhimi, qahramon ongida u qon timsoliga aylanadi. Bu psixologik proyeksiya: qahramon tashqi manzarada ichki qo'rquvini ko'radi. Go'zallik ostida yashirin vahshiylikni anglash — uning ruhiy larzasini kuchaytiradi. Bu sahna asarning markaziy g'oyasini ochadi: go'zallik va yovuzlik ko'pincha bir-biridan ajralgan emas. Inson tashqi joziba bilan ichki shafqatsizlikni birlashtira oladi. Qahramon esa bu haqiqatni qabul qila olmaydi, chunki u ayolni najot timsoliga aylantirib ulgurgan edi. Shu tariqa illyuziya parchalanadi. Go'zallik endi najot emas, balki dahshat manbaiga aylanadi. Qahramon qalbidagi "tosh" esa erish o'rniga yanada og'irlashadi. Chunki u nafaqat tushkunlikni, balki inson tabiatidagi yashirin yovuzlikni ham ko'rdi. Bu parcha inson ongining ikki qutbi — estetik mastlik va axloqiy dahshat — o'rtasidagi keskin to'qnashuvni tasvirlaydi. Aynan shu to'qnashuv keyingi ruhiy qulash va ichki toshning tashqi harakatga aylanishi uchun zamin yaratadi.

Ichki toshning tashqi yovuzlikka aylanishi: ruhiy qulash va timsollar talqini

Hikoyada guvohi bo'lamizki, qahramon yana "bag'rining tubida cho'kib yotgan azim Tosh"ga bosh uradi. Bu ibora tasodifiy emas: u ichki og'irlikdan qochib bo'lmasligini, undan chalg'ish vaqtinchalik ekanini anglatadi. Avval go'zallik qo'shiq edi, najot edi. Endi esa u g'oyib. O'rnini yana badbin kayfiyat egallaydi. Demak, illyuziya parchalangan zahoti ichki haqiqat yanada og'irroq zarba bilan qaytadi. "Mustahkam to'rlar changalida" degan tasvir qahramonning ruhiy qamal holatini bildiradi. U endi na go'zallikka, na najotga ishonadi. U o'zini "nochor va g'arib" his qiladi — bu nafaqat yolg'izlik, balki ma'naviy ojizlikdir. Eng muhim burilish — tush sahnasi. Tush badiiy vosita sifatida qahramon ong ostidagi haqiqatni ochib beradi. Avval tosh ichkarida edi — ramziy, ruhiy og'irlik sifatida. Endi u qo'lda. Bu o'zgarish juda chuqur ma'noga ega: ichki yovuzlik tashqi harakatga aylanish arafasiga kelgan. Qahramonning o'zi ham dahshatga tushadi: "Axir bu tosh

mening ichimda edi-ku?” Bu savol asarning markaziy falsafiy savolidir. Yovuzlik tashqaridan kelmadimi? Yo‘q. U ichda shakllandi. Faqat vaqt masalasi edi — qachon u tashqi shaklga chiqadi. Tushda u duch kelgan har bir insonning boshiga tosh uradi. Bu tasvir shuni anglatadiki, ichki nafrat individual emas, umumiydushgan tus olgan. U endi ma’lum bir shaxsga emas, butun jamiyatga qaratilgan. Qahramon ongida insoniyatga nisbatan ishonch va mehr yemirilgan. Tog‘ va quyosh timsollari esa yanada chuqur falsafiy qatlamni ochadi. Tog‘ — yuksaklik, haqiqat, ilohiylik ramzi. Quyosh — hayot manbai, yorug‘lik, boshlanish. Qahramonning quyoshni toshbo‘ron qilish niyati — hayotning o‘ziga qarshi isyonidir. Bu shunchaki tajovuz emas; bu borliq tartibiga qarshi ichki qo‘zg‘olon. Tushdagi asosiy vizual manzara — baliq boshini ezgan sotuvchi va ayolning qip-qizil og‘zi. Demak, tashqi shafqatsizlik ichki ongga muhrlanib qolgan. Qahramon ko‘rgan vahshiylik uning ichki toshini siljitgan, uni faol kuchga aylantirgan.

Bu yerda muallif yovuzlikning tug‘ilishi jarayonini nihoyatda aniq ko‘rsatadi:

1. Ruhiy tushkunlik va begonalashuv.
2. Najot illyuziyasi.
3. Go‘zallik ortidagi shafqatsizlikni anglash.
4. Ichki og‘irlikning nafratga aylanishi.
5. Ong ostida zo‘ravonlik istagining paydo bo‘lishi.

Eng dahshatlisi shundaki, qahramon o‘zini to‘xtatolmaydi. Bu ichki nazorat mexanizmining yemirilganini bildiradi. Tosh endi uning ixtiyorida emas — u toshning ixtiyorida. Shunday qilib, hikoyaning bu qismi shuni anglatadiki, inson qalbida yig‘ilgan og‘riq va tushkunlik o‘z vaqtida anglanmasa, u ma’naviy inqirozga, undan esa yovuzlikka olib kelishi mumkin. Yovuzlik tashqi omil emas — u qalabda pishib yetiladi. Va bir kun kelib, u qo‘lga chiqadi.